

**Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash
bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida
MA'LUMOT**

2026-yil 2-aprel holatiga

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son, 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-son Farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz **“texnologik zanjir”** asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

Har haftaning dushanba kunlari vazir huzurida hamda juma kunlari vazirning ijro intizomiga mas’ul o‘rinbosari huzurida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari va Hukumatning hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi tanqidiy muhokama qilib borilmoqda.

Shu bilan birga, 2026-yil 5-mart kuni vazirlikning Hay’at yig‘ilishida “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi muxokama qilinib, mas’ullarning shaxsiy mas’uliyati va javobgarligi oshirilgan.

2026-yilning mart oyida ijrosi ta‘minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarini 25-martga qadar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan I-II kartoteka topshiriqlar ro‘yxati 18 fevral kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, Vazir Sh.Xamrayev imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

2026-yilning mart oyida ijrosi ta‘minlanishi lozim bo‘lgan **60 ta** Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari hamda **28 ta** Administratsiya rahbari topshiriqlarining barchasisi (**100 foiz**) to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

187 ta Prezident topshiriqlarining **180 ta**si bajarilgan hamda **7 ta**si bajarilmagan. Davlat rahbarining 7 ta topshiriqlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq ijro muddatini uzaytirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga va Adliya vazirligiga taklif kiritilgan bo‘lib, ushbu topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash choralari ko‘rilmoqda.

Shuningdek, 2026-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning **143 ta** topshirig'i nazoratga olingan bo'lib, shundan, **79 ta**sida vazirlik asosiy ijrochi va **64 ta**sida ham ijrochi.

Administratsiya rahbarining **50 ta** topshirig'i nazoratga olingan bo'lib, shundan, **37 ta**sida vazirlik asosiy ijrochi va **13 ta**sida ham ijrochi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **59 ta** topshirig'i nazoratga olingan bo'lib, shundan, **50 ta**sida vazirlik asosiy ijrochi va **9 ta**sida ham ijrochi hisoblanadi.

Topshiriqlar ijrosini tashkil etish bilan bog'liq masalalar har hafta vazirlik markaziy apparati yig'ilishlari hamda har oy yakuni bilan hay'at yig'ilishida tanqidiy tahlil qilib borilmoqda.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo'limi